

QO‘SHMA GAPLARNI O‘QITISHGA OID METODIK TAVSIYALAR

JDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

magistranti Asrorova Mo‘mina

tel. +998 93 296 77 32

Annotatsiya. Ushbu maqolada 9-sinf ona tili darsida o‘tiladigan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarning semantik, sintaktik xususiyatlari hamda ularning o‘qitilishiga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье представлены семантические и синтаксические особенности союзов и методические рекомендации по их преподаванию на уроке родного языка в 9 классе.

Abstract. The article presents the semantic and syntactic features of conjunctions and methodological recommendations for their teaching in the native language lesson in the 9th grade.

Kalit so‘zlari. Sintaksis, qo‘shma gap, boglangan qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap, kesim, bog‘lovchi, yuklama.

Ключевые слова. Синтаксис, составное предложение, связное составное предложение, составное предложение без соединительного, отрезка, связного, нагрузки.

Keywords. Syntax, compound sentence, connected compound sentence, compound sentence without connecting, segment, connected, load.

Qo‘shma gap sintaksisi 9-sinf ona tili darsligining 2-bo‘limidan boshlab o‘tiladi. Bu mavzu maktab o‘quvchilari uchun o‘rganilishi ancha murakkab bo‘lgan mavzu sanaladi. Shu bois mazkur sintaktik qurilmani o‘quvchilarga o‘rgatishda darslikda berilgan ma’lumotlardan tashqari o‘qituvchidan ham yaxshigina bilim va mahorat talab etiladi. “Darsliklarimizda qo‘shma gaplar talqini ancha murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog‘lovchilar, yuklamalar, ko‘makchilar, nisbiy so‘zlar, fe‘l shakllari va ohang orqali bog‘lanadi.”¹

¹ B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. –B 163.

“Sodda va qo‘shma gaplar” mavzusida “Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimning nechtaligi gaplarni sodda va qo‘shma gaplarga ajratishga asos bo‘ladi.”² deyilgan. “Kesim – gap markazi” degan talqinni o‘quvchilar ongiga singdirmay turib qo‘shma gaplar tasnifini puxta o‘rganib bo‘lmaydi.”³

Bu borada “Lisoniy struktura jihatidan qo‘shma gapning sodda gapdan farqi ma’lum darajada ravshan. Aniqrog‘i, sodda gapda shakllangan kesim bitta bo‘lsa, qo‘shma gapda u birdan ortiq boladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.”⁴ “Shakllangan, ya’ni kesimlik shakllari (tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son, ma’nolari)ga ega bo‘lgan kesim alohidabir hukmni ifodalaydi, muayyan gap markazini tashkil eta oladi. Shuning uchun ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar (lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo‘laklar tarzida bo‘lmasa) qo‘shma gaplar sanaladi.”⁵ fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Masalan: Vazifamiz - o‘qish -*sodda gap*; Vazifamiz - o‘qish va izlanish - *qo‘shma gap*. Ushbu gaplarda kesimlik ma’nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma’no), hozirgi zamon, III shaxs ma’nolari aniqlanadi, lekin ular moddiy ko‘rsatkichlarga ega emas. Nol ko‘rsatkich orqali umumiy tarzda ifodalangan. Ana shu ma’nolar mavjudligi uchun ham u sintaktik birliklar gap sanaladi.⁶ Lekin Vazifamiz - o‘qish va izlanish hisoblanadi gapi sodda gap sanaladi. Chunki “Gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklar (so‘z, ibora, so‘z birikmalari) bilan ifodalangan kesim bo‘lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keying kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo‘lsa, bunday ko‘p kesimli gap uyushiq kesimli gap sanaladi.”⁷

Shu o‘rinda, masalani oydinlashtirish o‘qituvchining zimmasiga yuklatiladi. Masalani hal qilish uchun FSMU metodidan foydalanish samaralidir:

² 9-sinf ona tili darsligi N. M. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sh. Sobirov Toshkent- 2019. –B 17.

³ B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. –B 164.

⁴ R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2009. –B 391.

⁵ N. Rasulova “Ona tilidan ma’ruzalar” 2018. –B 126.

⁶ N. Rasulova “Ona tilidan ma’ruzalar” 2018. –B 126.

⁷ N. Rasulova “Ona tilidan ma’ruzalar” 2018 –B 82.

Fikr - Ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar (lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo‘laklar tarzida bo‘lmasa) qo‘shma gaplar sanaladi.

Sabab - Ushbu gaplarda har bir kesimda kesimlik ma’nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma’no), zamon, shaxs ma’nolari aniqlanadi.

Misol - Vazifamiz - o‘qish va izlanish.

Umumiy fikr - Demak, sodda gapda shakllangan kesim bitta bolsa, qo‘shma gapda u birdan ortiq boladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.

Qo‘shma gaplarda bog‘lovchi vositalarning qo‘llanilishi borasida inkor bog‘lovchisi *na...*, *na*; o‘xshatish -chog‘ishtirish bog‘lovchisi *go‘yo*, *go‘yoki*, *xuddis*; ayiruv bog‘lovchisi *ham* yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar mavzusini tushuntirishda ularning bog‘lovchi-yuklama ekanligini aytib o‘tish talab etiladi.

Na-na yordamchisi teng boglovchining bir turi sifatida inkor bog‘lovchisi sanalib kelgan. Tilshunos G‘.Abdurahmonov esa uni inkor bog‘lovchi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog‘lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog‘lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo‘lak (komponent)larga inkor ma’nosini berib, ularni bog‘laydi: *Na so‘zlarida ma’no bor, na ishlarida hayo.* (O.). Bu yordamchi so‘z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma’nosini ko‘rsatadi: *Raisning erkatoiy o‘g‘li na o‘qiydi, na biror joyda ishlaydi.*

Go‘yo yordamchisi mazmunidan o‘xshatish yoki chog‘ishtirish ma’nosi anglashilgan sodda va qo‘shma gap tarkibida ishtirok etadi. Sodda gapda ko‘proq yuklamaga yaqin turadi: *Tursunoy go‘yo qalbi bilan ashulaga jo‘r bo‘lar edi.* (A.Mux.). *Kampirning yuzida go‘yo kulgiga o‘xshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qah.). *Go‘yo* yordamchisi qo‘shma gapda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositaning biri sifatida xizmat qiladi, ya’ni qo‘shma gapda sodda gapdagi vazifasidan farqli o‘laroq, faqat yuklamagina emas, balki bog‘lovchi-

yuklama sanaladi: *Ertaga nikoh bo'ladi, go'yo men uning xotini.* (Oyb.) *Shunday baqirdiki, go'yo butun xona larzaga kelgandek bo'ldi.* (A.Qah.)⁹

**Ushbu masalani yoritishda mustahkamlash darslarida
jadvallardan yoki “Venn diagrammasi” usulidan foydalanish
samaralidir.**



Bundan tashqari, o'quvchilarga bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashda xizmat qiladigan *bo'lsa* so'zi yordamida gap tuzish vazifasi berilganda aksariyat o'quvchilar, taxminan, *Maktabimizda tadbir bo'lsa, men ham qatnashaman* ko'rinishidagi gaplarni tuzadilar. Bunday gaplar qismlari shart mayli vositasida bog'langan ergash gapli qo'shma gap sanalishini tushuntirish lozim bo'ladi. Ushbu holatda, agar *bo'lsa* so'zi birinchi qismning oxirida kelsa, ergash gapli qo'shma gap, agar *bo'lsa* so'zi ikkinchi gapning tarkibida qiyoslanayotgan bo'lakdan so'ng kelsa, bunday gap bog'langan qo'shma gap hisoblanishini aytib o'tish lozim bo'ladi.

⁹ R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o'zbek adabiy tili” 2009. –B 277.



Xaritaning yakuniy “idrok” qismi o‘quvchilar tomonidan to‘ldirilib, xulosaviy qaror qilinadi va o‘qituvchiga taqdim etiladi.

Egallangan bilimni yana ham mustahkamlash uchun o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan audiomatn eshittiriladi. O‘quvchilar tomonidan esa *bo'lsa* vositasida bog‘langan qo‘shma gap va ergash gapining kesimi *bo'lsa* so‘zi bilan ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplar ajratib beriladi.

Bundan tashqari, o‘quvchilar bilan topqirlik mashqlarini bajarish ham samarali natija beradi. Bunday mashqlar o‘quvchilarda nafaqat grammatik bilimlarni, balki ulardagi kognitivlikni ham oshiradi. Masalan, mantiqiy test topshirig‘ining savoli qo‘shma gap turining qaysi turiga mansubligini topish o‘quvchida grammatik bilimni shakllantirsa, to‘g‘ri variantni belgilash orqali ulardagi kreativlik namoyon bo‘ladi.

O'ylab top

Agar bosh bo'yin bo'lsa, qalpoq nima?
A) Yoqa
B) Bluz
C) Kekirdak
D) Shapka
E) Sharf

Daraxt - shox, kitob bo'lsa...?
A) Tana
B) Jild
C) Kutubxona
D) O'tin
E) Varaq

Bu yerda u yer bo'lsa, ular kimlar?
A) Shular
B) Ular
C) Boshqalar
D) Bizlar
E) Sizlar

Asbob - atvertka, daraxt bo'lsa...?
A) Chinor
B) Tokarlik dastgohi
C) Maymunjon
D) Taxta
E) Chinnigul

Formal sintaksis qo'shma gap tasnifida ko'p hollarda ularning nutqiy belgi-xususiyati, zohiriy alomatiga tayanadi. Substansial sintaksis tasnifi esa qo'shma gapning lisoniy mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shu bois qo'shma gaplar haqidagi mavzularni o'qitishda kommunikativ nutqiy jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha sintaktik qurilmalar haqida imkon qadar kengroq ma'lumot berilishi lozim. Masalan, nutqda ravishdoshlar: -b(-ib), -guncha (-kuncha, -quncha), -gach (-kach, -qach); -sa ham, -sa-da birliklari vositasidagi qo'shma gaplardan juda ko'p foydalaniladi. *Bahor kelib, kunlar iliy boshladi* – sabab, payt munosabati; *Oyim kelgunicha, men hamma ishlarni bitirishim kerak* – payt munosabati; *Quyosh chiqsa ham, kun sovuq* - to'siqsizlik munosabati kabi ma'lumotlar ham darslikda berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchini mustaqil va mukammal bilim olishi uchun imkoniyat yaratish, uning dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish o'qituvchining intellektual

salohiyatiga, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli va unumli foydalanishiga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishi uchun pedagog o'z kasbining ustasi, fidoyisi bo'lishi kerak. Shu ma'noda bugungi o'qituvchidan yurtimiz kelajagi uchun yangicha fikrlaydigan, ertangi kunga yangicha nigoh bilan qaraydigan, zamon bilan hamnafas komil insonni shakllantirish talab etiladi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi keng va yuksak mahoratga ega bo'lmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga faqat qoida yodlatish emas, balki shu yodlagan qoidalarini kundalik hayotda duch kelgan masalalarni hal qilishda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish hozirgi zamon ona tili o'qituvchisining asosiy vazifasi hisoblanadi. O'quvchining sof ona tilida ma'noli so'zlash odobini shakllantirish uning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri bo'lmog'i lozim. Qo'shma gap turlari haqida darslikda berilgan topshiriq va mashqlarni bajarishda har qanday grammatik birlikning semantik xususiyatlariga ham e'tibor berish kerak. Agar o'quvchi o'z nutqida qo'llagan lisoniy birlikning semantik xususiyatini bilsa, har qanday nutqiy jarayon uning uchun samarali kichadi. Zero, til ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki bu bilimlar orqali ularning til malakasini oshirish hamdir. Til bo'yicha egallangan bilim malakaga aylanmas ekan, u keraksiz bo'lib qolaveradi.